

AXBOROT ASRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA SHAXSNING AXBOROT - PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qıtuvchısı Karımova Malohatoy Mo‘minjonova Andijon davlat pedagogika instituti “Tasviriysan’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabası Mashrabov Ro‘zımuhammad Baxodırjon O‘g‘li

Anotatsiya: Ushbu maqolada axborot asrining o‘ziga xos xususiyatlari, mazmun - mohiyati haqida va shaxsning Axborot psixologik xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari, uning xavfsizlik tug‘diruvchi subyektlari va omillari borasida keng tahlil olib borilgan hamda fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, xavfsizlik, subyekt, omil, yo‘nalish, globallashuv.

Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir.

Sh. M.Mirziyoyev

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy - ma’rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustuvor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda Ozod va obod Vatan, erkin va mustaqil jamiyat barpo etish kabi ko‘zlangan g‘oyalarini yurt ravnaqi, millatlararo totuvlik, inson kamoloti, barkamoli hamda Ijtimoiy- siyosiy hamkorlik tashkil etuvchi milliy mafkuraning metodologik va konseptual asoslari yaratildi. Eng avvalo kelajagimizning egalari, ertangi kunimiz poydevorlariga e’tibor kuchaydi, ularni o‘qishi, bilim olishi, biror sohani egasi bo‘lishligi uchun bir so‘z bilan aytganda yoshlarni yetuk va barkamol shaxs bo‘lib yetishishi uchun barcha shart- sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda barchamiz uchun keng imkoniyatlar mavjud, faqatgina o‘zimizda xohish- istak, harakat bo‘lsa yetarli. Hozirgi tez sur‘atlarda rivojlanayotgan, taraqqiylashayotgan davrda barcha shart- sharoitlar yaratilayotgan ekan, ulardan unumli foydalanish zarur. Zamon shiddat bilan o‘sib, rivojlanmoqda. Texnika, texnologiya, fan, iqtisodiyot, aloqa kabi barcha sohalarda rivojlanish sezilarli darajada desak yanglishmagan bo‘lamiz. Zamon taraqqiylashayotgan shunday davrda biz yoshlar barcha imkoniyatlarimizdan foydalangan holda zamon bilan hamnafas bo‘lib o‘zimiz egallayotgan sohani, kasbni rivojlanishiga, taraqqiylashishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Insoniyat yaralibdiki, uning axborot tizimlaridan tegishli ma’lumotlarni qabul qilishi hamda shu asosda o‘z Ijtimoiy “men”ligini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib kelgan, hozir ham shunday davom etmoqda. Insoniyatning XXI asrga qadam qo‘yishi axborot ko‘lami hamda sifati misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi bilan nishonlandi. XXI asr boshlanishida tezkor, keng ko‘lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy rivojlanishning asosiy belgisi sifatida barcha jabhalarga kirib keldi. Shu boisdan ayni paytda axborot makonining globallashuvi butun dunyo taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan va ko‘rsatayotgan omil sifatida e’tirof etilmoqda. Hozirda axborot ko‘proq ma’lumotlar, xabarlar shaklida namoyon bo‘lmoqda. Albatta, zarur axborotlarga ega bo‘lishga intilish - davr talabi. Axborot atrof - muhit obyektlari va hodisalari, ularning parametrlari, xususiyatlari va holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ular haqidagi bilimlarning noaniqligi va to‘liq emasligi darajasini kamaytiradi. Axborot atamasi lotincha *information* - axborot

soʻzidan olingan boʻlib, *tushuntirish, xabardorlik* taqdim etish degan maʼnoni anglatadi. Keng maʼnoda esa axborot bu- odamlar, insonlar oʻrtasida axborot almashish, jonli va jonsiz tabiat, insonlar va qurilmalar oʻrtasidagi signal almashishni oʻz ichiga olgan umumiy ilmiy tushunchadir. Hozirgi kunda zamon shu qadar shiddat bilan rivojlanyapdiki, yangidan yangi texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari yaratilmoqda. Ming yilliklar ayirilishida jamiyatda boʻlgan axborot hajmining keskin oʻsishi odamlar kamolotiga, birgalikdagi faoliyati takomillashuviga ijobiy taʼsir koʻrsatgan va shu bilan birga “Tanganing ikkinchi tomoni bor” degandek har narsaning yaxshi va yomon tomonlari boʻladi. Yaʼni bir qancha ijobiy hodisalarda boʻlgani singari mazkur hodisalarning ham salbiy jihatlari mavjud. Odamlar hozirda axborot almashinuvisiz hayot kechirishlari mushkul sanaladi. Chunki axborot almashinuvisiz hayot kechirish bu atrof- olamdan, jamiyatdan, umuman Ijtimoiy hayotdan uzilish demakdir, ammo oʻsha jarayonning shunday salbiy jihatlari mavjudki, ular shaxs hamda jamiyat rivojini jiddiy xavf ostiga qoʻyadi. Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotning turli jabhalariga iqtisodiyot, transport, aloqa tizimiga, madaniyat, ilm- fan sohasiga tatbiq qilinishi butun jamiyatni va har bir insonni ana shu axborot infratuzilmasining faoliyat tarziga bogʻlab qoʻydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, insoniyat oʻzi yaratgan axborot texnologiyalarining va ulardan xavfsiz foydalanishning muayyan darajada garoviga aylanib qoldi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Hozirgi kunda shaxsning kamoloti, har tomonlama yetukligi, ijodiy salohiyatga ega boʻlishi taraqqiyotning eng oliy maqsadi hisoblanadi, shuning uchun hozirda axborot psixologik xavf va undan homoyalanish yaʼni xavfsizlikni taʼminlash tushunchalari paydo boʻldi. Axborot psixologik xavfsizlik bu bevosita inson ruhiyatiga taʼsir oʻtkazish orqali oʻz aqidalari, muqaddas ideallari hamda eʼtiqodidan ayiradigan buzgʻunchi, yomon gʻoyalardan saqlashdir. Shuning uchun axborot psixologik xavfsizlikka ehtiyoj zarur va u eng avvalo inson va jamiyat, inson va davlat, milliy qadriyatlar, urf- odatlar, anʼanalar, meroslar, avlodlar vorisiyiligi bilan boʻlgan qadriyatlarga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi buzgʻunchi gʻoyalar, tajovuzkor mafkuralar mavjudligidan kelib chiqadi. Agarda axborot psixologik xavfsizlikka rioya etilmasa, unga taʼsirchan choralari koʻrilmasa, bunday buzgʻunchi gʻoyalar, milliy anʼana, qadriyatlarni barbod etishi bilan birga tarixan mavjud boʻlgan millat va elatlarning gʻoyaviy *genodsida* olib kelishi muqarrar.

Oʻzbekistonda axborot- psixologik xavfsizlikni taʼminlashda tashkiliy masalalarning oʻrni muhimdir. Yurtimizda hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati organlari, shuningdek jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar davlatni boshqarishdek bitta, yagona maqsad yoʻlida oʻz vakolati va huquqlari doirasida izchil, samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Barchamiz ijtimoiy tarmoqlardan, axborot resurslaridan foydalanamiz albatta busiz imkon yoʻq, lekin kim qanday maqsadda internetdan, axborot vositalaridan foydalanishi oʻziga bogʻliqdir. Oʻzimiz uchun kerakli bilimlarni olish uchun, axborot xabarlarini, yangiliklarni oʻrganib borishimiz menimcha zarar emas, zero kim qanday maqsadda foydalansa shuni topadi. Biz kelajak, ertangi kun egalarimiz shunday ekan hozirda bizga bildirilayotgan ishonchni oqlagan holda oʻz ustimizda ishlashimiz, ertaga yurt uchun foydamiz tegadigan yetuk kadr boʻlib yetishishga harakat qilmogʻimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi hukumati qarorlarining toʻplamlari. 2006, 25, 26- sonlar.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Miliy Xavfsizlik Konsepsiyasi.
3. F. Moʻminov, SH. Barotov va boshq. Ochiq Axborot tizimlarida Axborot- Psixologik xavfsizlik. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2013.